

## DEVIANT XULQLI BOLALAR VA O'SMIRLAR BILAN ISHLASHDA IJTIMOYIY ISH USULLARI

**Xolto'rayeva Zahro Doniyorovna**

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti  
Ijtimoiy ish yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Norqulova Muhayyo Farhod qizi**

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti  
Ijtimoiy ish yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Salimova Jasmina Alijonovna**

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti  
Ijtimoiy ish yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Bu maqolada asosan deviantlik tushunchasi, yosh avlod o'rtasida deviant xulq-atvorning rivojlanishi, jamiyatdagi jinoyatchilik hodisalarining o'sishi, deviant xulq-atvorli shaxslarni rehabilitatsiya qilish. Maqsad o'spirinlarning har bir harakatini tekshirish, ularni deviantlikdan qutqarish.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, xulq-atvor, barkomal avlod, o'spirin, deviant, jinoyat, rehabilitatsiya.

Yurtimiz kundan kunga rivojlanayotgan davrda yosh avlod o'rtasida deviant xulq-atvorning rivojlanishi va jamiyatdagi jinoyatchilik hodisalarining o'sishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Qonun doirasidan chiqib noqonuniy xatti-harakatlar qilish istagi bo'lgan bolalar va o'smirlarning deviant xatti-harakatlari rivojlanishi bilan ortib bormoqda. Zamonaviy dunyoda deviant xatti-harakatlar muammosi ayniqsa keskin rivojlanib bormoqda. Jamiyatda bunday shaxslarning rivojlanishi ko'plab qonunbuzarliklarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy tengsizlik, ommaviy globallashuv, axborotdan erkin foydalanish, demokratiyaning rivojlanishi, ijtimoiy hodisalar ko'pincha o'smirlar muhitida salbiy reaksiyalarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Yoshlar ko'pincha adolatsizlik natijasida ham isyonlar ko'tarib deviantlik xususiyatlarini o'zida mujassam qiladi. Axloqiy me'yorlardan izdan chiqadi. Bu asosan bola va o'smirlar nafaqat yosh inqilobiy, balki butun jamiyatga zarar keltiradigan o'ta xavfli shakllar yuzaga keladi.

O'smirlar yoshida deviantlik namoyon bo'lishining tinimsiz oshib borishi ijtimoiy pedagog oldida bu o'smirlar bilan ishlashning yangi usullari, texnologiyalarini ishlash va ularga tadbiiq etish vazifasini qo'yadi. Ilmiy nazariy va amaliyotda ikki asosiy texnologiya-profilaktika va rehabilitatsiya keng tarqalgan. Bular o'smirlarni o'tish davrida ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy o'tishda xulqda madaniy normani o'zlashtirishi, turli xil odob-axloqni singdirish, qonun-qoida normalaridan

chiqmaslik, muayyan sharoitda yashashga majbur bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash zarur hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvantlik, o'z-o'zini o'ldirish (suitsit), fohishabozlik, tajavuzkorlik, mayda huquqbuzarliklar, jinoyatchilik kabilar kiradi. Bular turli xil biologik, psixologik, ijtimoiy muammolar natijasida kelib chiqadi. Psixologiyada deviantlikning 3ta asosiy belgisi aniqlangan:

1. Deviant xulq-atvor tajavuzkorlik, o'g'irlik, huquqbuzarliklar, o'smirlar o'qishga qiziqishni yo'qotishi mumkin, yosh bolalar o'z onalarini o'ziga xos ideal deb bilishadi.

2. Xulq-atvorning giyohvandlik shakli psixologik va fiziologik qaramlik bilan tavsiflanadi. Bu toifaga sezgir va zaif odamlar kiradi. Ular osongina yomon ta'sirga tushib qolishlari yoki yolg'izlik tufayli tushkunlikka tushishlari mumkin.

3. Buzg'unchi variant o'ziga va boshqalarga nisbatan tajavuzning mavjudligi, zo'ravonlik, o'z joniga qasd qilish va ob'ektlarga zarar yetkazish ehtimoli bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy dunyoda tatuirovka (terisiga turli xil rasmlarni chizish) prinsipining rivojlanishini, psixologlarning zargarlik buyumlariga haddan tashqari muhabbatini deviant xatti-harakatlarning yangi turiga bog'ladilar. Deviant xulqlilar bu prinsipni yuqori darajada rivojlantirgan. Jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan bunday prinsiplar deviantlikning kengayishiga zamin yaratadi. Misol uchun bu tatuirovkani ko'rgan qiziqqan bola buni o'zida ham paydo qilishga harakat qiladi. Unda qiziqish paydo buladi. Bitta insonda deviantlikning paydo bo'lishiga zamin yaratiladi. Bunda ijtimoiy ishchi asosiy tushuntirish ishlarini olib boradi. Bolaga to'g'ri psixologik tushuncha beriladi.

Ma'lumki, insoniyat tarixining dastlabki davrlarida ijtimoiy deviantlik va xulq-atvor og'ishining yuz berish jarayonlari axloqsizlik sifatida qaralgan va asosan diniy me'yorlar orqali tartibga keltirib turilgan. Turon xalqlari ham qadim-qadimdan ijtimoiy deviantlik holatlariga salbiy munosabatda bo'lishgan va ushbu munosabat zardushtiylik, budda va boshqa qadimgi Turonda mavjud boshqa diniy ta'limotlarda aks etgan. Ushbu davrlarda ham deviantlikni to'xtatish uning rivojlanishini kamaytish asosiy muammolardan biri bo'lgan. Ijtimoiy ishning shakllanishi o'sha davrlardan boshlangan bo'lib xozirda judal rivojlanmoqda.

Deviant xulq atvor turlaridan biri bu fohishabozlik. Bu fanda rasmiy nikohsiz jinsiy aloqa ikkita turga bo'lib o'rganiladi.

1. Konkubinat-nikohsiz birga yashash
2. Fohishabozlik-pul uchun o'z tanasini sotish.

G'arbda asosan ikkinchisi qoralansada, Sharqda ikkala holatga ham me'yordan og'ish sifatida qaraladi. Chunki sharqda madaniyat, sharm-hayo, axloq-odob juda ulug' qadarlanadi.

Bulardan tashqari xalqimizda mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, boqimandachilik kabi salbiy holatlar ham me'yordan chiqishning ko'rinishlari

hisoblanadi. Deviant xarakterga ega bo'lgan yoshlar ko'pincha maktabdagi darsga bormaydilar, uydan qochib ketadilar, daydilik qiladilar, tilanchilik bilan shug'ullanadilar, ichkilik ichadilar, giyohvand moddalarni is'temol qiladilar, o'g'rilik qiladi. Natijada qonunbuzarlikka moyil bo'lib, jinoyatga qo'l uradilar. Hayotini qaytadan boshlashlari uchun ijtimoiy ishchi chuqur bilib, malaka va ko'nikmaga ega ega bo'lishlari zarur. Imkoni boricha reabilitatsiya qilinishi tibbiy, psixologik, ijtimoiy yordamlar ko'rsatilishi kerak.

XVIII asrlarga kelib yangi davr mutaffakirlari ijtimoiy me'yor deviant holatlar muammosini yanada chuqurroq tahlil qiladilar. Ularning barchasi deviantlikni jamiyatdagi qonun-qoidalardan chetga chiqish, doimiy dolzarb muammo bo'lgan. Klassik yo'nalish vakillari garchi deviant xulq-atvorni sotsiologik tushuntirishda ancha ilgarilab ketishgan bo'lsa ham, bu nazariyalar amaliy tadqiqotlar bilan mustahkamlanmaganligi sababli, ularning nazariyalari XIX asrlarga kelib biologik yo'nalish vakillari tomonidan osongina inkor qilina boshladi.

Italiyalik psixiatr Ch. Lombrozo o'n yil davomida 14 ming mahbusni tekshirib, ular ustida tadqiqot olib boradi. O'z kuzatishlari asosida Lombrozo xulq-atvor sababiylikka ega degan xulosaga keladi. Uning g'oyasi ``sabab- o'zaro aloqador sabablar zanjiridan iborat`` degan qarashdan iboratdur. U jinoyatchilarni 4 guruhga bo'ladi:

1. Tug'ma jinoyatchilar;
2. Ruhiy kasal jinoyatchilar;
3. E'tiqodga ko'ra jinoyatchilar;
4. Tasodifiy jinoyatchilar;

Lombrozo o'z g'oyalarida qasddan qilinadigan jinoyatchilik, fohishabozlik va ichkilikbozlik kabi illatlarning tug'ma bo'lishiga urg'u beradi. ``Tug'ma individual omillar-jinoiy xulqning asosiy sabablaridir`` deb yozadi. Bu olimning fikrlari haqiqatga ancha yaqin chunchi avlodida ichkilikbozlik bo'lgan shaxslarda avlodlar gallanishi natijasida qaysidir naslda ichkilikbozlik uchraydi. Jinoyatchilik ham shunday shakllanishi mumkin. Ruhiy kasallik ham avlodlarda kuzatiladi. Bu avloddan-avlodga o'tadigan kasallik hisoblanadi. Ijtimoiy deviantlik buning shakllanishiga boshqa omillarning ham ta'siri bo'ladi. Xususan, u o'zining ``Jinoyatchi va fohisha ayol,`` asarida aytadi: ``Fohisha uchun erkak bilan qovushish-ruhiy jihatdan ham, jismoniy jihatdan ham o'ta oddiy holat va u ushbu kasbga yaxshi haq to'lagani uchun o'z tanasini sotadi``, ya'ni iqtisodiy omil ustunlik qiladi. Bu turdagi ayollar faqat haq uchun bu jinoyatchiliklarni qiladi. Lombrozo o'z tadqiqotlari orqali bir narsaga, axloq va axloqsizlikning tug'ma bo'lishini isbotlashga harakat qiladi. Garchi biologiya, sotsiologiya va psixologiya fanlarida erishilgan keyingi yutuqlar buni to'la inkor eta olgan bo'lsada, uzoq yillar mobaynida olib borgan amaliy tadqiqotlari natijasida, deviant holatlarni o'ziga xos klassifikatsiyalari o'sha davrdagi ijtimoiy deviantlikning amaliy tavsifi keyingi davr olimlari uchun ajoyib qiyosiy material vazifasini o'tab kelmoqda.

Me'yordan og'ish va me'yorning o'zi ko'pincha o'zi ko'pincha eksperimental usullar yordamida aniqlanadi. Biroq og'ayotgan xulq-atvorning barcha ko'rsatgichlarini nazariy jihatdan talqin qilish va o'lchashning imkoni yo'q. Shunday hollarda deviantlikning barcha sabablari aniqlanadi, uning oldini olish chora tadbirlari yuzaga keladi.

#### **DEVIANT XULQLILAR TOIFASIGA:**

1. Chekishga moyilligi bo'lgan bolalar.
2. Spirtli ichimliklarga moyilligi bo'lgan bolalar.
3. O'g'irlikka, yolg'onlikka moyilligi bo'lgan bolalar.
4. Intizomsiz, ish yoqmas, dangasallikka moyilligi bo'lgan bolalar.
5. Psixotrop moddalarga moyilligi bo'lgan bolalar.
6. Narkomaniyaga moyilligi bo'lgan bolalar.
7. Axloqiy va maishiy buzuvchilikka moyilligi bo'lgan bolalar.
8. Poraxo'rlikka moyilligi bo'lgan bolalar.
9. Diniy eksterimizmga moyilligi bo'lgan bolalar.
10. Fanatizmga moyilligi bo'lgan bolalar.
11. Agressiv, millatchilikka moyillik.
12. Mahalliychilikka moyillik.
13. Narkobiznesga moyillik.

Deviant xulq-atvor mikroijtimoiy munosabatlar (oilalar, maktabdagi munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor turlaridan biridir. Bu xulq-atvorni "g'ayriintizomiy" deb atash ham bo'ladi. Deviant xulq-atvorning yorqin namoyon bo'lishiga ,agressiya, o'qishdan qochish va daydilik, bolalar va o'smirlar orasidagi aroqxo'rlik, giyohvandlik va u bilan bog'liq g'ayriijtimoiy harakatlar yuzaga keladi. Ularning shakllanishi keng tarqalmoqda. Bunda o'smirda ichki-shaxsiy xulq-atvorda nafaqat biologik, balki psixologik o'zgarishlar ham namoyon bo'ladi.

Jamiyatda umume'tirof etilgan me'yorlar va odamlarning xulq-atvorini ana shu me'yorlarga muvofiq tartibga solishga mo'ljallangan ijtimoiy nazorat tizimi mavjud. Odamlarning xulq-atvori normalarga mos kelmaydigan holatlar kam uchraydi. Bunday xatti-harakatlar deviant deb ataladi.

Deviant xulq-atvor shakllarining xilma-xilligidan sotsiologlar alohida guruhlarni ajratadilar. Birinchidan, bunday xatti-harakatni shaxs darajasida, kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlar doirasida ko'rib chiqish mumkin. Misol uchun , qishloq uyida yolg'iz yashovchi er-xotin barcha bo'sh vaqtlarini turli mamlakatlarda olib kelingan yuvvoyi hayvonlarni parvarish qilish bilan o'tkaziladi.

Ammo deviant xulq-atvorning shakllari va namoyon bo'lishini farqlash uchun eng ko'p ishlatiladigan asosiy narsa bu olib keladigan oqibatlardir. Unga olib keluvchi yo'llarni aniqlash zarur hisoblanadi.

Alkogolizm insonning shaxsiyatiga halokatli ta'sir ko'rsatadi. Inson tanasida spirtli ichiliklarni tez-tez ishlatishdan ta'sirlanmaydigan biron-bir organ yo'q. Spirtli ichimliklar inson asab tizimiga ta'sir qiladi, miya hujaylarini yo'q qiladi, psixikani o'zgartiradi (tahlil qilish qobiliyati yo'qoladi, nutq buziladi, xotira susayadi). Uzoq muddatli surunkali alkogolli zaharlanishdan so'ng, odam mutloq harakatsizlikka keladi. U atrofdagi voqealarni zaif idrok etadi va ``vegetativ`` turmush tarzini olib borishni boshlaydi. Bunda u turli xil o'zgarishlarni mujassam qiladi, sog'lig'i tez buziladi, markaziy nerv sistemasida o'zgarishlar bo'ladi, qon aylanishi buzilib insonda turli xil o'zgarishlar yuzaga keladi.

Deviantologiya kursining asosiy maqsadi o'quvchilardan shaxs maqsadi, o'quvchilardan shaxs og'ishgan xulqi muammolarining zamonaviy holati haqida ilmiy asoslangan, yaxlit tasavvurning shakllanishida yordamlashishda ko'nikadi. Og'ishgan xulqni tushuntirish uchun turlicha psixologik konsepsiyalar qiymatini tan olgan holda asosida kognitiv-axloqiy yondashuv yotuvchi konsepsiyani ustuvor sifatida ko'ramiz. Og'ishgan xulq tushunchasini keng ma'noda tushuntiriladi. Jamiyatda bu fanning shakllanishi keng tarmoqda foydalaniladi.

Psixopatologik mezonlardan tibbiyotda foydalaniladi. Uni shaxsning og'ishgan xulqi va boshqa sohalarda qo'llashga qiziqtiradigan narsa mavjud. Bu deviant xulq tadqiqotlarining an'anaviy ravishda klinik sharoitlarda olib borishi bilan bog'liqdir.

Deviant xatti-harakatdagi bolalar va o'smirlarga nisbatan profilaktika, rehabilitatsiya va korreksiya ishlari amalga oshiriladi. Bu ularni deviantlikdan chiqirishga, ijtimoiylashishga yordam beradi.

Rehabilitatsiya bu- bolaning shaxsiy huquqi, huquqiy statusi, sog'lig'i, ishga layoqatsizligini tiklashga qaratilgan kompleks tizim hisoblanadi. Deviant shaxs bu markazda sog'lig'ini tiklashi, xulqini to'g'rilashi, jamiyatga ijtimoiylashishi mumkin.

Profilaktika-bu rehabilitatsiya tizimidagi shaxsning rivojlanishidagi u yoki bu chekinishlarni yo'qotishga shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan tadbirlardir. U ko'proq ijtimoiy muhit bilan bog'liqdir.

Korreksiya- bu hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyat hisoblanadi.

Bola rivojlanishining har bir davrida shaxsiyat va xarakterning ba'zi ruhiy hislatlari shakllanadi va o'zgaradi. O'smirlarda ruhiyat rivojlanishining ikki bosqichi kuzatiladi: yashaydigan ijtimoiy muhitdan bezib qoladi, yoki ko'nikib ketadi. Bunda bolaning emotsional, psixik holatlari, ijtimoiylashuvdagi og'ishlar, tarbiya, xulq-atvorning o'zgarishi kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunda ularning deviantlikka moyilligi, ya'ni deviantsiya holatlari paydo bula boshlaydi. Ularni bundan chiqarish, yordam berish ijtimoiy ish xodimining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Xulosa. Shunday qilib, deviant xulq-atvorli yoshlar jamiyat ``kasalligi``dir. Bu ``kasallik`` esa o'smir yoshdagilarga boshqalarga nisbatan tez yuqib, butun jamiyatni oxir-oqibat yo'q qilish xususiyatiga ega. Oqilona yuritilayotgan siyosat va islohatlar bu

muammoning avj olishiga mustahkam devor bo'la oladi deb o'ylayman. Deviantlikning jamoatchilik bo'ylab tarqalishi, jamiyatda bunday shaxslarning sonining ortib borishi va ularning xulqini yaxshilashga, jamiyatga tez moslashishiga yordam chora tadbirlarining oshirilishiga keng yo'l ochilgan. Bu islohatlar natijasida yurtimizda deviantlikning kamayishi asosiy mavzu hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. „Yoshlar sotsiologiyasi” o'quv qo'llanma
2. CH.Lombrozoning „Jinoyat va fohisha ayol” haqidagi asari
3. „Deviant xulq-atvor psixologiyasi” L.M.Xakimova. Toshkent 2014.
4. Jizpe.uz
5. Goaravetisyan.ru
6. Qayumova, Y., & Urmonova, D. (2023). EXCLAVAS OF UZBEKISTAN - COMPARATIVE ANALYSIS OF THE ICHTIOFAUNALS OF SHAHIMARDAN AND SOKH. Scientific Journal of the Fergana State University, 29(4). Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/30>
7. Qayumova, Y., & Komilova, X. (2023). ON THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE MORPHOMETRIC CHARACTERISTICS OF THE TURKISH SAND FISH GOBIO LEPIDOLAEMUS (K.KESSLER1872). Scientific Journal of the Fergana State University, (3), 156. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/2622>
8. Каюмова, Ёркиной Кабиловна, et al. "ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ВАЛЕОЛОГИИ." Вестник науки и образования 9-2 (112) (2021): 16-20.
9. Каюмова, Ёркиной Кабиловна, and Дилдора Икромжоновна Комилова. "Биология гусеницы гранатовой плодожорки (Euzophera Bigella Zeller)." Проблемы современной науки и образования 10 (143) (2019): 12-14.
10. Каюмова, Ё. К., Д. Э. Урмонова, and А. М. Мирзалиев. "БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГРАНАТОВОЙ ПЛОДОЖОРКИ (EUZOPHERA BIGELLA ZELLER, 1848) В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ." The Way of Science (2014): 8.